Tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorlikka ta'siri (xorijiy tajriba).....	993
Usmonova Vasila Botirovna	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili.....	997
Akramova Nargiza Nutfillayevna	
Using integrated marketing communications (IMC) in business management	1002
Ziyayeva M.M.	
Xorijiy mamlakatlarda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish masalalari va ulardan o'zbekistonda foydalanish istiqbollari.....	1006
Jaxongirov Ilindorjon Jahongirjon o'g'li	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi	1024
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
Каримова Нуржахон Олим кизи	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	
Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini maqsadli boshqarish mexanizmi.....	1042
Yunusova Sohiba Abdumamidovna	
Evaluating the capital asset pricing model methodology in uzbekistan companies	1048
Bunyod Usmonov	
Aholini ish bilan bandligining yangi turlari va imkoniyatlari	1055
A.B. Khayitov	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va o'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	1059
Mamura Tadjibayeva	
Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	1064
Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari	1071
Sanaqulov Sardor Istamqulovich	



Bank xizmatlari sifati va bank daromadlariga ta'sir etuvchi omil sifatida personal faoliyatining o'rni.....	1075
Abdukaxarova Shoir Abdurahobovna	
Fond bozori raqamli iqtisodiyotda investitsiyalarni shakllantirish manbai sifatida.....	1079
Kamilova Sevara Anvarovna	
O'zbekistonda toza suv va sanitariyaning inson hayoti hamda iqtisodiy farovonlikka ta'siri: BRM-6 doirasida tahlil.....	1085
Xasanova Iroda Azizbek qizi	
Increasing the effectiveness of using marketing communications in the tourism services market.....	1090
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon ugli	
Davlat xaridlari sohasini takomillashtirish istiqbollari.....	1095
Bazarov Nazirjon Sobirovich	
Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektlarda takomillashtirish.....	1103
Xayitboeva Laylo Oybekovna	
Davlat moliyaviy nazorati tizimida tashqi audit: rivojlangan mamlakatlar amaliyoti.....	1109
Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov	
Moliyaviy instrumentlarni hisobga olishda biznes modelning ahamiyati va amaliy yondashuvlar.....	1114
Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	1118
Tursunov Ilxom Toirovich	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni baholash.....	1124
Yuldasheva Gulmira	
Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhtovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Adoption of electric vehicles in logistics: opportunities and challenges in Uzbekistan.....	1175
Oblokulova Parvina	
Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari.....	1182
Jurayev Abdug'afar Sofarovich, Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
Raqamli transformatsiya jarayonlarining mehnat bozori konyukturasiga ta'siri.....	1187
Fayzullayev Nurulla Baxromovich, Xudaybergenova Shukurjon Erkinovna	
Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
Niyozova Shohsanam Nuritdinovna	



Auditorlik xulosalarini shakllantirishda auditorlik dalillariga qo'yiladigan talablar	1199
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	
Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati	1203
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari	1207
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	
Eko va agro-turizmga raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari	1212
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	
The importance of the cluster system in the agricultural field	1217
Sherkulov Shokhrux Erkin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari	1221
Mardonov Mashrab Mansurovich, Muxtorov Abduxolik Abdusalimovich	
Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlarini	1225
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati	1230
Mahmudov Nurali Komilovich	
Korporativ moliya tizimini rivojlantirishda raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning integratsiyasi	1241
Xalbekov Ozodbek Xudoykulovich	
The influence of tour interpretation on perceived heritage values: a comparative analysis of tourists with and without guided interpretation at a heritage destination	1245
Shokhnigorbegim Juraeva	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish	1252
Xazratov Abror Panjiyevich	
Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari	1257
Abriev Zoirjon	
Пути инновационного развития национальной экономики	1262
Жураев Тошболта Тухтаевич	
Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati	1267
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Application of ifrs in budgetary accounting	1272
G. Djambakieva	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida	1276
Raximov Alisher Ibragimovich	
O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili	1281
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich	
Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari	1288
Rahimova Qutlibika Ergashevna	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash	1293
Yuldasheva Gulmira	
Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzдорligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari	1296
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari	1303
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari	1313
Axtamova Parizod Oybek qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari	1319
Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich	



Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	1327
A'zamova Aziza Olimjon qizi	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....	1334
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari	1343
Qosimov Bobur Sobirovich	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....	1347
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna	
Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....	1359
Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна	
Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubiyoti.....	1374
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari	1383
Sarimsaqov Doniyor Xomidovich	
Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar tahlili	1390
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mehnat bozori: rivojlanish tendensiyalarining iqtisodiy-statistik tahlili, baholash va istiqbollari.....	1396
Mirzayeva Odina Imomnazar qizi	
Адаптивная модель антикризисных мероприятий, направленных на повышение эффективности управления активами, оптимизацию затрат и реструктуризацию задолженности	1402
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Xalqaro va ichki turistik bozorlarda o'zbekistonning turistik mahsulotlarini targ'ib qilish mexanizmi	1409
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tourism infrastructure constraints and service gaps in uzbekistan's visitor economy.....	1412
Kurolov Maksud Obitovich, Xamidjonova Moxinur Xayrulla qizi	
Основные проблемы перехода на МСФО в республике узбекистане	1419
Махмудов Жамшед Ашрафович	
Binolar loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari.....	1425
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Ayrim ta'lim tizimi bilan bog'liq terminlarning izohli lug'at va etimologik lug'at o'rtasidagi farqi.....	1429
Mahbuba Xoliqova Abdimo'min qizi	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatining ahamiyati	1433
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Corpus-based framework of english teaching for competency-oriented curriculum design	1448
Raximova Gulnoza Sharipjanovna	
Masofaviy ta'lim tizimida matematika fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	1454
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Texnologik inqilob va mehnat bozorining transformatsiyasi	1459
A'zamova Feruza, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sifat menejmenti tizimini rivojlantirish asosida uy-joy fondlarini boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....	1465
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



O'zbekistonda ekologik turizm: yashil iqtisodiyot rivojini tezlashtiruvchi omil.....	1471
Rashidov Saidislom	
Navoiy viloyatida yirik sanoat monopoliyalarini rivojlantirishning tabiiy-iqtisodiy salohiyati ("Qizilqumsement" AJ misolida).....	1474
Savrieva Madina Xakimovna, Xamroyeva Shaxnoza Ibrohim qizi	
Eksport-import operatsiyalarida dolzarb muammolar va yechimlar	1480
Xudayberdiyeva Dilnoza Egamberdiyevna	
Роль международных финансовых центров в мировой экономике	1484
Нуриддинова Мафтуна Жахонгировна	
Measures to enhance the tax mechanism applied to business entities.....	1489
Kudiyarov Kishibay, Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
Davlat boshqaruv organlarining xizmat ko'rsatish sohasini samarali tashkil etish orqali kambag'allikni qisqartirish.....	1495
Asrorov Uchqun Akram o'g'li	
The role of green logistics in Uzbekistan and international trends.....	1499
Turakulova Dildora, Ismoilova Diyora	
Hududlarda turizm mahallalarning turistik salohiyatini oshirish usullari (Bog'ibaland turizm mahallasi misolida)	1506
Raxmanov Jasur Ubaydulloyevich	
Human Capital and Artificial Intelligence: Navigating the Future of Work	1511
Hamrokulov Mirabbos, Karimbergan Kariev	
Analysis of green economic growth indicators in uzbekistan.....	1518
Toshboyev Bekzod Bakhtiyorovich	
Toshkent viloyati iqtisodiyotida vino turizmning o'ri.....	1526
Jalilov Shoxjahon Xolbozor o'g'li	
O'zbekiston sharoitida qurilish loyihalari materiallari sarfini tahlil qilish va optimallashtirish va ularni iqtisodiy-matematik modelmodellastirish	1530
Turayeva Mohinur Asliddinovna	
Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda dasturiy ta'minot va zamonaviy axborot texnologiyalarning o'ri.....	1534
Xodjayeva Mu'tabar Xamidulla qizi, Cho'ponova Gulira'no Doniyor qizi	
Suv tarkibining "wireless waterlight" qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	1540
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
Zamonaviy sharoitda dxsh asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmatlar ko'rsatishning integratsion jarayonlari.....	1546
Ubaydullayeva Vasila Sadullayevna	
Donni saqlash va qayta ishlash korxonalari biznes jarayonidan olingan chiqindilar hisobini takomillashtirish	1549
Valijonov Xasanboy Akbaraliyevich	
Commercial real estate as a tool for synchronizing economic processes.....	1556
Nastassia Chyhyryna, Siarhei Liashuk, Allayeva Gulchexra Jalgasovna, Khakimdjanova Surayyo Khabibullayevna	
Asalarichilik faoliyatini rivojlantirish bosqichlari va istiqbollari	1563
Shodiyev Murodjon Bakirovich	



ASALARICHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA ISTIQBOLLARI



Shodiyev Murodjon Bakirovich

Renessans Ta'lim Universiteti,
Moliya va Kredit kafedrası katta o'qituvchisi
E-mail: murodshodd@gmail.com
ORCID: 0009-0004-3052-8866

Annotatsiya: Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida rivojlantirish, shuningdek, asalarichilik faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha barcha qulay sharoitlar yaratilayotganini monografik kuzatishlar orqali ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish maqsadida, ularni asalari bilan changlatish amaliyotini keng joriy etishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada asalarichilikning tarixiy rivojlanish bosqichlari, zamonaviy holati, ko'chma asalarichilikning afzalliklari hamda iqtisodiy samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Asalarichilik, asalari qutisi, asalari mahsulotlari, apiterapiya, asalari zotlari, ona asalari, asalari oilasi, Apimondiya, Apiacta, o'rta rus asalari, Kavkaz kulrang tog' asalari, ukrain dasht asalari, asal, mum, nektar, asalarilar migratsiyasi, ko'chma asalarichilik.

Abstract: Our monographic observations indicate that all favorable conditions are being created in our republic for the development of the beekeeping sector, based on modern scientific approaches and the effective organization of beekeeping activities. Currently, a wide range of measures is being implemented to promote the practice of bee pollination in order to increase the productivity of agricultural crops. The article discusses the historical stages of beekeeping development, its current state, the benefits of mobile beekeeping, and its economic efficiency.

Key words: Beekeeping, hive, beekeeping products, apitherapy, bee breeds, queen bees, bee colony, Apimondia, Apiacta, Central Russian bees, Caucasian grey mountain bees, Ukrainian steppe bees, honey, wax, nectar, bee migration, mobile beekeeping.

Аннотация: Из монографических наблюдений видно, что в нашей республике создаются все благоприятные условия для развития пчеловодческой отрасли на основе современных научных подходов и эффективной организации пчеловодческой деятельности.

В настоящее время реализуется широкий комплекс мер по внедрению практики пчелиного опыления с целью повышения урожайности сельскохозяйственных культур.

В статье освещены исторические этапы развития пчеловодства, его современное состояние, преимущества и экономическая эффективность мобильного пчеловодства.

Ключевые слова: Пчеловодство, улей, продукты пчеловодства, апитерапия, породы пчёл, пчелиные матки, пчелиная семья, Апиомондия, Апиакта, среднерусские пчёлы, кавказские серые горные пчёлы, украинские степные пчёлы, мёд, воск, нектар, миграция пчёл, мобильное пчеловодство.

KIRISH

Arxeologik dalillar shuni ko'rsatadiki, insonlar asalarilarni kamida 17 000 yil oldin bilgan. Bu esa, insonlarning o'zlashtirma qishloq xo'jaligining eng qadimgi tizimlaridan 4 000 yil oldin sodir bo'lganini anglatadi. Asalni tabiatdan o'zlashtirish va asalarichilik mahsulotlarini yig'ish jarayoni haqidagi eng qadimgi tasvirlar bu



holatni tasdiqlaydi. Oradan qariyb 14 000 yil o'tib, qishloq xo'jaligi tizimining bir qismi sifatida asalari oilasini boshqarishga oid ilk dalillar paydo bo'lgan. Bu esa, taxminan 3 000 yil muqaddam insonlar asalari oilasi haqida muayyan bilimlarga ega bo'lganligini ko'rsatadi [4]. Dastlab insonlar asaldan faqat oziq-ovqat sifatida foydalangan, keyinchalik esa uni davolash maqsadida ishlatishni boshlaganlar. Oradan ko'p yillar o'tib, mumdan foydalanish amaliyoti shakllandi. Har ikkala mahsulot — asal ham, mum ham — hozirgi kunda oziq-ovqat, farmatsevtika va texnika sanoatida muhim xom ashyo hisoblanadi. Asalari zaharining shifobaxsh xususiyatlari aniqlangach va undan foydalanish yo'li topilgach, insonlarning asalarilarga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi. Asalarichilikning zamonaviy ko'rinishi 19-asrda fan va texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida rivojlanish imkoniga ega bo'ldi. 1814-yilda rus asalarichisi P. I. Prokopovich romli asalari qutisini, 1865-yilda esa chex asalarichisi F. Grushka asalajratgichni kashf etishi natijasida ko'plab mamlakatlarda asalarichilik serdaromad tarmoqqa aylandi. 1920-yillardan boshlab esa maxsus asalari xo'jaliklari shakllana boshladi. Asalarichilik bugungi kunda Yer yuzining barcha qit'alarida tarqalgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 1970-yillar boshlarida dunyoda 40 millionga yaqin asalari oilasi (uyasi) mavjud bo'lgan bo'lsa, 2022–2024-yillarga kelib bu ko'rsatkich 100 milliondan oshgan [5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-iyundagi VMQ–239-sonli “Asalarichilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligi ekinlarini asalari bilan changlatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorida qishloq xo'jaligi ekinlarini changlatishga oid muhim chora-tadbirlar va soliq-imtiyozlar ko'rsatib o'tilgan [2].

Shuningdek, 2019-yil 18-martdagi PF–158-son Farmon¹ va PQ–4243-sonli qaror², hamda 2017-yil 16-oktyabrdagi PQ–3327-son³ “Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorda ham ushbu soha rivoji uchun ustuvor vazifalar belgilab berilgan [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot jarayonida, avvalo, umumiy metodologik asos sifatida dialektika, ilmiy tafakkur, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, induktiv-deduktiv yondashuv, abstrakt-mantiqiy metodlar hamda qiyoslash kabi nazariy umumilmiy metodlardan foydalanildi. Shuningdek, umumilmiy empirik metodlar sifatida ilmiy va qomusiy manbalarni sharhlash, kuzatish va retrospektiv tahlil usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda jahon mamlakatlarida asalarichilik uch asosiy yo'nalishda rivojlanayotgani kuzatilmoqda. Buni yuqoridagi chizmadan ham ko'rish mumkin:

Asalari mahsulotlarini yetishtirish,
O'simliklarni changlatish,
Asalari mahsulotlari bilan davolash — ya'ni apiterapiya.

Bundan tashqari, xo'jaliklarga tarqatish uchun eng yaxshi asalari zotlarining ona asalilarini yetishtirish (ona asalari yetishtiruvchi xo'jaliklar faoliyati), shuningdek, bahorgi mavsumda asalari oilalarining bir qismini ajratib, paket ko'rinishida yangi asalari oilasi sifatida yetkazib berish xizmatlari ham bosqichma-bosqich rivojlanmoqda.



1-chizma⁴

- 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.10.2024 yildagi PF-158-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-7166588>
- 2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 18.03.2019 yildagi PQ-4243-son <https://lex.uz/ru/docs/-4245443>
- 3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 16.10.2017 yildagi PQ-3327-son <https://lex.uz/ru/docs/-3380814?ON-DATE=16.02.2024%2000>
- 4 Muallifning tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.



Asalarichilik AQSH, Xitoy, Turkiya, Rossiya, Argentina, Meksika, Yevropaning ko'plab mamlakatlari, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida ayniqsa rivojlangan. 1887-yilda tashkil etilgan "Apimondiya" Xalqaro asalarichilik tashkiloti asalarichilar o'rtasida xalqaro aloqalarni rivojlantirishga katta hissa qo'shib kelmoqda. Ushbu tashkilot tomonidan asalarichilikka bag'ishlangan simpoziumlar, kongresslar va ko'rgazmalar muntazam o'tkazib kelinadi. Bundan tashqari, 1966-yildan boshlab "Apiacta" nomli maxsus xalqaro jurnal ham nashr etilmoqda.

O'zbekistonda asalarichilik mahsulotlari qadimdan oziq-ovqat va dori-darmon sifatida mashhur bo'lsa-da, asalarilarni qutilarda boqish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yo'lga qo'yilgan. Dastlabki asalari oilalari 1841-yilda Qozog'istonning Semipalatinsk viloyatidan Turkistonga keltirilib, qutilarda boqish tizimi joriy qilingan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonga o'rta rus asalarisi, Kavkaz kulrang tog' asalarisi, ukrain dasht asalarisi va boshqa zotlar olib kelingan. Natijada, O'zbekistonda biologik xususiyatlari hamda foydali xo'jalik belgilariga ko'ra ajdodlaridan farqlanuvchi yangi asalari populyatsiyalari shakllangan hamda ixtisoslashtirilgan asalarichilik xo'jaliklari tashkil etilgan.

"Asalarichilik" uyushmasi 1975–1996-yillarda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi qoshida xo'jalik sifatida faoliyat yuritgan. Shuningdek, o'rmon xo'jaligi korxonalari hamda "O'zmevasabzavotuzumsanoatxolding" kompaniyasi tarkibida asalarichilik xo'jaliklari mavjud bo'lgan. Asalari xo'jaliklarida asal yetishmovchiligi yuzaga kelishining asosiy sababi — asalarilarning nektar manbai bo'lgan o'simliklar plantatsiyalariga ko'chirilmasligidir. Bu usul uzoq vaqtdan beri ma'lum bo'lib, undan foydalanish katta samaradorlikni ta'minlaydi.

Asalari oilalaridan ko'proq asal va mum olish uchun ularni nektarga boy yaylovlarga joylashtirish zarur. Chunki agar yaylovlar sifatsiz yoki yetarli bo'lmasa, hatto tajribali asalarichi bo'lsa ham, kuchli asalari oilalari uyaga yetarli miqdorda nektar olib kela olmaydi yoki uni qayerdan olishni aniqlay olmaydi.


Asalari xo'jaliklari o'simliklarni changlatish va nektarga boy plantatsiyalardan foydalana olish uchun asalarilar migratsiyasini oldindan puxta rejalashtirishlari zarur. Bu borada, ayniqsa, erta bahordan boshlab nektari ko'p bo'lgan o'simliklarning joylashuvi va gullash taqvimini aniq bilish muhim ahamiyatga ega. Bu esa, asalari oilalaridan maksimal darajada hosil olish imkonini yaratadi. Ko'chma asalarichilik butun mavsum davomida bir joyda turgan xo'jaliklarga nisbatan qishloq xo'jaligiga ancha katta foyda keltiradi. Bir tomondan, bu usul ko'proq o'simliklarni changlatib ularning hosildorligini oshiradi, ikkinchi tomondan esa, o'simliklarning kengroq tarqalishiga xizmat qiladi.

Asalarichilikdan olinadigan daromadni baholashda ikki xil yondashuv mavjud:

Ma'lum bir davr asosida (masalan, bir yil yoki mavsum),

Asalari oilalari sonining yer maydoniga nisbati (masalan, 1 gektar maydonga 50 ta asalari oilasi).

Asalarichilik bilan shug'ullanish qo'shimcha daromad manbai sifatida eng maqbul faoliyatlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, adirlik, tog' va tog'oldi hududlari hamda pasttekisliklarda joylashgan aholi punktlari uchun bu faoliyat iqtisodiy jihatdan nihoyatda foydalidir.



2-chizma⁵

5 Muallifning tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.



Tomorqa xo'jaliklarida asalarichilik bilan oilaviy shug'ullanishning qay darajada keng qamrovli foyda keltiradigan soha ekanligini yuqoridagi chizmadan ham ko'rish mumkin. Asalarichilik bilan shug'ullanishning qulay jihatlaridan yana biri — bu sohaning doimiy bandlikni talab qilmasligidir. Bu esa insonlarga boshqa sohada faoliyat yuritgan holda, ishdan bo'sh vaqtlarida asalarichilik bilan shug'ullanish imkonini beradi. Dastlab havaskorlik darajasida boshlangan faoliyat, bilim va malaka orttirilishi orqali vaqt o'tishi bilan professional darajagacha yetishi mumkin. Asalarichilik bilan oilaviy tarzda shug'ullanish ushbu sohada katta samaradorlik beradi. Bunga yaqqol misol sifatida Toshkent viloyati Yuqorichirchiq tumani Gulobod mahalla fuqarolar yig'ini Parvoz ko'chasi 100-uyda joylashgan "BAKIR BOLARI" oilaviy korxonasini keltirish mumkin. Mazkur korxona bir necha yildan beri asalarichilik sohasi bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda. "BAKIR BOLARI" oilaviy korxonasi nafaqat asalarichilikni qishloq xo'jaligining muhim yo'nalishi sifatida rivojlantirib kelmoqda, balki zamonaviy tibbiyotda keng qo'llanilayotgan "apiterapiya" usulidan foydalangan holda tibbiy faoliyatni ham amalga oshirmoqda. Ushbu korxonaga asos solgan Teshabayev Bakirboy ota bugungi kunda 86 yoshni qarshi olmoqda, va hozirda korxona faoliyatini uchinchi avlod vakillari davom ettirmoqda. Tadbirkorlik faoliyatining avloddan avlodga o'tuvchi shaklda tashkil etilishi yuqori samaradorlikka ega ekani rivojlangan mamlakatlar tajribasi misolida ham tasdiqlanadi. Korxona doirasida ustoz-shogird an'anasi keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu nafaqat malakali kadrlar tayyorlashga, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qilmoqda. Hozirda "BAKIR BOLARI" oilaviy korxonasi uchta filialga ega bo'lib, u ishsizlarni ish bilan ta'minlash, aholini tabiiy usullar orqali davolash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda asalarichilik sohasiga oid bilim va ko'nikmalarni o'rgatish bilan ham shug'ullanib kelmoqda. Bugungi kunda mazkur oilaviy korxonaning boy tajribasiga tayangan holda "Tomorqa xo'jaliklarida asalarichilikni rivojlantirish samaradorligini oshirish yo'llari" mavzusida iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun ilmiy-tadqiqot ishi olib borilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, asalarichilik sohasi bilan shug'ullanish qo'shimcha daromad manbai sifatida eng maqbul faoliyat turlaridan biri bo'lib, ayniqsa tomorqa xo'jaliklari sharoitida katta iqtisodiy samara beradi. Ko'chma asalarichilik esa butun mavsum davomida bir joyda turgan xo'jaliklarga nisbatan qishloq xo'jaligiga ko'proq foyda keltirishi bilan bir qatorda xo'jalik daromadini ham oshiradi. Shu bilan birga, tabiiy asalari mahsulotlarini yetishtirish orqali sog'lom turmush tarzini joriy etish imkoniyati yaratiladi. Asalari yordamida o'simliklarni changlatish esa qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish orqali ularning iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, asalari mahsulotlari bilan davolash — ya'ni apiterapiya — zamonaviy tibbiyotda tabiiy davolash yo'nalishini rivojlantirishga xizmat qiladi va inson salomatligini mustahkamlashda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-oktabrdagi PQ-3327-sonli "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-3380814?ONDATE=16.02.2024%2000>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-iyundagi 239-sonli "Asalarichilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligi ekinlarini asalari bilan changlatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-6490369>
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2001. 1-jild, 681–686–betlar.
4. United States Department of Agriculture. Beekeeping. <https://www.nal.usda.gov/animal-health-and-welfare/beekeeping>
5. Apimondia – International Federation of Beekeepers' Associations. <https://www.apimondia.org>
6. Toshkent viloyati, Yuqorichirchiq tumani, "BAKIR BOLARI" oilaviy korxonasi faoliyatiga doir ma'lumotlar (2024).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
